

JAHON LINGVOMADANIYATIDA EVFEMIZMLAR TADQIQIDA AYOL KONSEPTINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Yo‘lchiyeva Zuhra Ummatqul qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs magistranti

[*zuhrayulchiyeva7@gmail.com*](mailto:zuhrayulchiyeva7@gmail.com)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jahon lingvomadaniyatida evfemizm hodisasining mohiyati, olimlar tomonidan keltirilgan ta’riflar va evfemizmlarning dunyo tilshunoslari tomonidan o‘rganilishiga oid ma’lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek, ayol konseptini ifodalovchi evfemizmlar haqida ham so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *evfemizm, tabu, evfemizlashtirish, til muammolari, semantik kategoriya, ayol, konsept, lingvomadaniyat.*

Аннотация: *В данной статье изложена сущность феномена эвфемизма в мировой лингвокультуре, даны определения учеными и изучены эвфемизмы мировыми лингвистами. Упоминаются также эвфемизмы, обозначающие понятие женщины.*

Ключевые слова: *эвфемизм, табу, эвфемизм, проблемы языка, семантическая категория, женщина, концепт, лингвокультура.*

Abstract: *In this article, the essence of the phenomenon of euphemism in world linguistic culture, the definitions given by scientists and the study of euphemisms by world linguists are given. Euphemisms representing the concept of woman are also mentioned.*

Key words: *euphemism, taboo, euphemism, language problems, semantic category, woman, concept, linguistic culture.*

Bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning katta tarmog‘i sifatida dolzarb hisoblanadi. Tilshunoslar tomonidan tilga jamiyatda insonlar o‘rtasidagi muloqotning muhim quroli, muayyan millat yoki guruhning qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi ko‘zgu sifatida qaralib, til muammolarini o‘rganish, ularni turli sohalarda tadqiq etishga e’tibor tobora ortib bormoqda.

Xususan, lingvomadaniyatshunoslikda evfemizm hodisasi alohida ahamiyatga ega. Bu jihat muhim ma'noda turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonida tushunmovchiliklardan qochish istagi bilan aloqador desak xato bo'lmaydi.

Evfemizmlar tom ma'noda jahondagi xalqlarining milliy dunyoqarashi, madaniyati va qadriyatlarining aksi, ko'zgusi hisoblandi. Shu jihatga ko'ra nutqni tinglovchiga yumshoq va to'g'ri tarzda yetkazish, muloqot va tarjimada madaniy shok holatlarini oldini olish, davlatlar o'rtasida aloqaga madaniy jihatdan to'g'ri kirishish talabi tilshunoslikda evfemizmlarni chuqur o'rganishni talab etadi.

Evfemizm yunoncha εὐφημισμός so'zidan olingan bo'lib, eu – “yaxshi”, phemi – “gapirmoq” ma'nolarini anglatib, muloqotda aytilishi qo'pol bo'lgan so'zlar o'rnida estetik jihatdan muloyimlashgan so'zlarni qo'llash ma'nosini ifodalaydi¹. “Evfemizm” termin sifatida lug'atga ilk bor XVII asr o'rtalarida kiritilgan. 1656-yilda Tomas Blauntning “Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words of Whatsoever Language, Now Used in Our Refined English Tongue” lug'ati nashr etilib, unda evfemizm tushunchasiga “a good or favorable interpretation of a bad word (qo'pol so'zning yaxshi yoki foydali talqini)” deya ta'rif berilgan. Qadimgi davrlarda evfemizm hodisasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'rif berib o'tilmagan bo'lsada, uning ma'nosini ifodalovchi fikrlar mavjud bo'lgan. Bunday qarashlar semantik nuqtai-nazardan tilda qo'llaniluvchi so'z va iboralarni yumshatish va bezashga oid g'oyalar asosida qadimgi yunon faylasufi Aristotelning eramizdan avvalgi 300 yillarda yaratilgan “Ritorika” asarida uchraydi Jahonda tilshunoslar tomonidan evfemizm atamasiga turlicha tariflar berib o'tilgan. Amerikalik tarixchi va leksikograf Tomas Blaunt evfemizm hodisasini aks ettiruvchi birliklar haqida fanda birinchilardan bo'lib ma'lumot berib o'tadi va evfemizmlarni “yomon so'zni yaxshisi yoki undan afzalrog'i bilan talqin qilish”² deya ta'dikdaydi. Yana bir amerikalik tilshunos P. Xovard “evfemizm – qo'pol, beadab, nojoiz ifodalar o'rniga yumshoq, og'ir botmaydigan ifodalardan foydalanish hodisasidir”³ deydi.

¹ Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. – Л.: ЛГПИ, 1989. – С. 15.

² Enright D.J. Fair of Speech: The Uses of Euphemism. Oxford University Press, 1985. - P. 13.

³ Howard P. The State of the Language. -NewYork: Oxford University Press, 1985. - P.101.

M.H. Abrams esa evfemizmlarni “Uyatga qo‘yishi yoki noqulay holatga solishi mumkin bulgan ifodalarning o‘rniga qo‘llaniladigan zararsiz ifodalar”⁴ deya ta’riflaydi.

Shuningdek rus tilshunoslaridan O.Axmanovaning klassik lug‘atda evfemizm “Biror predmet yoki hodisani ko‘chma, yashirin, xushmuomalalikka asoslangan, yumshatilgan ifodasidan iborat ko‘chim”⁵ degan ta’rif keltiriladi.

Evfemizm mohiyatini ochib beruvchi fikrlar uzoq sharq tilshunoslari asarlarida ham yoritib o‘tilgan. Jumladan, xitoy tilshunosi Van Sitsze (王希杰) “To‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirishni xohlamaydigan va gapirib bo‘lmaydigan holatlarda uni burib, aylantirib gapirish orqali o‘z maqsadiga erishishga evfemizm deyiladi”⁶ degan ta’rifni beradi.

Evfemizmning birinchi mahalliy tadqiqotchilaridan hisoblangan Larin evfemizmlarni “taqiqlash tufayli qayta nomlash” sifatida qo‘llaniladigan so‘zlar deb ta’riflaydi⁷.

O‘zbek tilshunosligida ham evfemizm hodisasiga A.Hojiyev tomonidan quyidagicha izoh keltiriladi: “Evfemizm narsa-hodisaning ancha yumshoq shaklidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash”⁸.

Ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina olimlar evfemizm ta’rifiga, birinchi navbatda, qo‘pol ma’noni va noxushlikni yumshatish vositasi sifatida yondashadilar.

Har bir tilda uchraydigan hodisa sifatida evfemizmlar jahonda mavjud tillarning boyligi va jozibasini ko‘rsatib beruvchi jihatlariga ega. Muloqot jarayonida tilda salbiy so‘zlardan qochgan holda tinglovchiga noqulaylik tug‘diruvchi yoki uning shaxsiyatini kamsitadigan, axloqiy me’yorlarga zid so‘zlarni ishlatishdan qochish, nutqni nozik va yumshoq tarzda yetkazish masalasi muhimdir.

Evfemizmlar – insonlar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni saqlashga, qo‘pol so‘z va iboralarni bilvosita yumshoq ma’noga ega so‘zlar bilan almashtirishga imkon beradi. Jahon tilshunosligida ham evfemizmlar va ularning tadqiqiga oid ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu ishlar ingliz, fransuz, nemis, chex,

⁴ Abrams M.H. AGlossary of Literary Terms. Harcourt Brace College Publishers, 1993.-P.

⁵ Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов . - М.: СЭ, 1969. - С. 521.

⁶ 王希杰, 汉语修辞学(修订版)北京: 商务印书馆, 2004

⁷ Ларин Б. А. Об эвфемизмах // Проблемы язы- кознания: уч. зап. ЛГУ. 1977. № 301. Вып. 60. С. 110- 124

⁸ Хожиев А. Лингвистик терминлар изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – Б. 56.

rus, xitoy tilshunos olimlari ishlarida salmoqli o‘rinlarni egallaydi. Masalan J.Vandries, N.Berdova, V.Fromkin, R.Rodman, E.Toropsteva, R.Keyes, A.M. Katsev, B.A. Larin, L.P. Krisin, M.L. Kovshova, B. Warren, H.A. Rouson, R.V. Holder va boshqalar tadqiqod ishlarida evfemizmlar keng tadqiq etilgan.

Umumtilshunoslikda evfemizm hodisasi XX-asr boshlarida J.Vandriyes, L.A.Bulaxovskiy⁹ kabi tilshunoslar tomonidan sohaga oid adabiyotlarda yoritilgan.

Koreys tilida evfemizm sohasidagi izlanishlar XX asrning boshlarida olib borilgan bo‘lib, ilk tadqiqotlar Cho Xe Son (조혜선) va Pak Sin Xyok (박승혁)¹⁰ tomonidan amalga oshirilgan. Bu olimlar evfemizmlarni grammatika va leksikologiyaning obykti sifatida boshqa tillarning xususiyatlariga asoslangan holda tadqiq qilishgan. Bundan tashqari Kim Mun Chang (김문창)¹¹, Kang Xyon Sok (강현석) va Pyo Kyong Xyon (표경현)¹² tomonidan ham evfemizmlar ma’lum xususiyatlariga ko‘ra tadqiq qilingan.

Evfemizm hodisasi tadqiqini olib borgan ko‘pgina olimlarning ishlarida evfemizmlarning qo‘llanishida ijtimoiy omilning ahamiyati yuksak ekanligi ta’kidlangan. Yuqoridagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, evfemizmlarni aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud va ular til hodisalariga xos bo‘lgan ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Izlanishlar orqali keltirilgan xulosalarga ko‘ra til birliklarini evfemizm deb tasniflash imkonini beruvchi qator mezonlar mavjud. Muloqot madaniyati darajasini va nutqiy madaniyat saviyasini ko‘rsatib beruvchi muhim vositalardan biri aynan evfemizmlardir.

Masalan o‘zbek tilida so‘zlovchi tomonidan “tug‘moq” so‘zi o‘riga “farzandli bo‘lmoq”, “farzand dunyoga keltirmoq”, “farzand ko‘rmoq”, “ko‘zi yormoq”, “yengil bo‘lmoq” so‘zlarni qo‘llash maqbulroqdir. Nutqda so‘zlovchi bu ifodalarning qay birini qo‘llashiga qarab nutq egasining madaniy saviyasiga baho berish mumkin.

⁹ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М.: Букинист, 1954 – С. 174.

¹⁰ 김종택. 이디엄 연구. 어문학통권제 25 호. - 서울: 한국어문학회, 1971.

¹¹ 김문창. 국어의 의미론적 유연성 연구. 낙선문학제 5 호. - 서울: 낙선어문학회, 1966.

¹² 박영순. 관용어에 대하여. - 서울: 신암이을환교수회갑기념논문집, 1985.

Tilning o‘zgaruvchan vositasi hisoblangan evfemizmlar nafaqat so‘zlovchilarning holati va mavqeiga, balki madaniyat turi, milliy o‘zligiga xos xususiyatlarga va jamiyatdagi o‘zaro qadriyat munosabatlari kabi boshqa muhim omillarga ham bog‘liq jihatdan tadqiq qilinadi. Shuningdek ko‘pgina olimlar til birligini evfemizm sifatida qo‘llanish shartlarini aniqlab, ulardan foydalanish shartlarini bir qancha omillar bilan belgilaydi. Bu omillar quyidagilar:

- kontekst omili;
- ijtimoiy omil;
- uslub omili¹³

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti til rivojiga ta’sir qilib, madaniyat yuksalgani sayin evfemizmlar ham sayqallanib boradi. “Shuning uchun, evfemizm hodisasini o‘rgana turib, albatta, uning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-madaniy muhitni inobatga olish kerak”¹⁴

Ta’kidlash joizki, evfemizm hodisasi til va tafakkurning paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq hodisadir. U asrlar davomida shakllanib, insonning muomala ehtiyoji, notiqlik talablari asosida til bilan birga, evolyutsion bosqichlarni ham bosib o‘tgan.

Evfemizmlarda foydalanish har qanday tilda mavjud va ular jamiyat hayoti bilan aloqador hisoblanadi. Nutqda xushmuomalalik va tinglovchini jalb qiluvchi pragmatik xususiyatlarni singdirish talabi ijtimoiy hayotda qadim zamonlardan beri ortib keladi. Bu talab esa tildagi qo‘pol va aytish noqulay bo‘lgan, axloq meyorlariga zid hisoblangan so‘zlardan qochib ularni parafraza qilish vajini keltirib chiqaradi. Turli so‘zlarda “o‘lmoq” so‘zi o‘rniga qanday evfemik vositalarni qo‘llash mumkinligini ko‘rib chiqaylik: rus tilida умереть o‘rniga – преставиться, отойти к Богу (Господу) so‘zini, ingliz tilida esa “died” – “o‘lgan” so‘zi o‘rniga “bought the farm” so‘zini, xitoy tilida 死 Sǐ o‘rniga – 去世 Qùshì, 巨星陨落 Jùxīng yǔnlùò (yulduz uchmoq) so‘zini, koreys tilida 죽다 o‘rniga – 돌아가다 (qaytmoq) so‘zini qo‘llash mumkin.

¹³ Сеничкина Е. П. Эвфемизмы русского языка: Спецкурс/ Учебное Пособие. М.: Высшая школа, 2006.

¹⁴ Крысин Л.П. Эвфемизмы с современной русской речи. Русский язык конца столетия. – М.: ЭКСМО, 1996.

Evfemizmlardan foydalanish madaniyatdan madaniyatga turlicha bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra evfemizmlarni qo‘llash diniy, tarixiy, axloqiy, ijtimoiy va siyosiy va boshqa shu kabi omillar bilan amalga oshiriladi. O‘rta asrlarda evfemizmlar tadqiq qilish quyidagi uchta guruhga bo‘lish orqali amalga oshirilgan:

- Xurofot tufayli bir so‘zni ikkinchisiga alishtiruvchi so‘zlar;
 - Kamtarlik bilan ifodalanuvchi so‘zlar;
 - Etiket qoidalariga axloqiy me‘yorlarga zid keluvchi so‘zlar o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlar¹⁵.

Ma’lumki, zamon va ijtimoiy muhitning o‘zgarishi bevosita tilda ham o‘z aksini topadi. Biz yashayotgan hayot ham madaniyatlararo muloqot sharoitida kechmoqda. Shu xususiyatga ko‘ra, ma’lum jamiyatlarda erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi alohida ijtimoiy omillar mavjud. Madaniyatda mavjud axloqiy qadriyatlar, xatti-harakat normalari va stereotiplar nutqda erkak va ayol konsepti uchun butunlay boshqa ifodalarni qo‘llashni talab etadi. Tarixan olib qaralsa ham dunyo xalqlari uchun ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki bosqichidayoq ayol erkak jinsidan muayyan qarash va tushunchalar bilan farq qilgan. Masalan qadimda jamiyat rivojlanishining ilk bosqichida kishilik jamoasi boshqaruvida matriarxat, ya’ni ona urug‘i ustun bo‘lgan bo‘lsa, davrlar osha insoniyatning bugungi kunga qadar yetib kelgan qadriyatlari, me‘yorlari, axloqiy qoidalari ustida erkaklar mutlaq ustunlikka erishgan. Qadimgi davrlarda ayollarga zaifa sifatida qaralib nutqda unga munosabat ham shunga ko‘ra qilingan. Vaqt o‘zgarishi bilan ayolning jamiyat hayotida tutgan ham o‘rni o‘zgarib bordi. Bu esa ayol siymosiga oid tasavvurlarning ham o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Tobora globallashib borayotgan zamonda xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvida, tadbirkorlik, ilm-fan sohalaridagi islohotlar hamda oila institutining mustahkamligini ta’minlashdagi rolini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayollarning ijtimoiy mavqeini yuksaltirish, ularning gender tengligi asosida jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridaga ishtirokini oshirish bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatida ahamiyatli masaladir. Bu

¹⁵ <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/1144/909/924>

jihatlari lingvomadaniyatda ham o'z aksini topib bormoqda. Gender omili ham ijtimoiy hayotda keng muhokama va mavzularga sabab bo'luvchi muhim omillardan biri sanaladi. Shunga ko'ra lingvomadaniyatda erkak va ayol konseptiga ikki qutb sifatida qarash o'rinlidir. Tilda ayol va erkak konseptini ifodalovchi evfemizmlar butunlay boshqa qirralarga ega.

Lingvomadaniy tadqiqotlarda ayol konsepti alohida mavzu sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Ayollarning tashqi ko'rinishi, yoshi, xulq-atvori va jamiyatdagi mavqeiga evfemizmlar turli mavzuli guruhlariga bo'lingan holda tadqiq etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Enright D.J. Fair of Speech: The Uses of Euphemism. Oxford University Press, 1985. - P. 13.
2. Howard P. The State of the Language. -New York: Oxford University Press, 1985. - P.101.
3. Abrams M.H. A Glossary of Literary Terms. Harcourt Brace College Publishers, 1993.-P.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов . - М.: СЭ, 1969. - С. 521.
5. 王希杰, 汉语修辞学(修订版)北京: 商务印书馆, 2004
6. Хожиев А. Лингвистик терминлар изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – Б. 56.
7. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М.: Букинист, 1954 – С. 174.
8. 김종택. 이디엄 연구. 어문학통권제 25 호. - 서울: 한국어문학회, 1971.
9. 김문창. 국어의 의미론적 유연성 연구. 낙선문학제 5 호. - 서울: 낙선어문학회, 1966.
10. 박영순. 관용어에 대하여. - 서울: 신암이을환교수회갑기념논문집, 1985.
11. Сеничкина Е. П. Эвфемизмы русского языка: Спецкурс/ Учебное Пособие. М.: Высшая школа, 2006.
12. Крысин Л.П. Эвфемизмы с современной русской речи. Русский язык конца столетия. – М.: ЭКСМО, 1996.

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://nauchkor.ru>
2. <https://bilig.academiascience.org>
3. <https://www.culture.ru>